



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 7 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 8, НОМЕР 7

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 8, ISSUE 7



ТОШКЕНТ-2025

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика  
университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент ирригация ва кишлок  
хужалигини механизациялаш  
мухандислари институти  
Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари  
университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қозоғистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Қозоғистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Сайнова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори, в.б.профессор,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий  
педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдулаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозогистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети


**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети


<b>1. Юлдуз Эргашева</b> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ II МИРОВОЙ ВОЙНЫ.....	5
<b>2. Nilufar Djurayeva</b> O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHDA XOTIN-QIZLARGA MUNOSABAT MASALASIDAGI TUB ISLOHOTLARNING USTUVOR YO‘NALISHLARI..	13
<b>3. Камола Саипова</b> НАЦИОНАЛЬНО-ГОСУДАРСТВЕННОЕ РАЗМЕЖЕВАНИЕ И ЕГО ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО СОСТАВА УЗБЕКСКОЙ ССР.....	26
<b>4. Отабек Алимардонов</b> ХАЛҚ ДИПЛОМАТИЯСИНИНГ ТЎРТ КВАДРАНТИ (ЧОРАК) ПАРАДИГМАСИ: НАЗАРИЙ ТИПОЛОГИЯ ВА ЎЗБЕКИСТОН АМАЛИЁТИ ТАҲЛИЛИ.....	34
<b>5. Zilola Abdualimova</b> SOVET PLAKATLARI TARG‘IBOT VOSITASI SIFATIDA (MIRZACHO‘LNI O‘ZLASHTIRISH MISOLIDA).....	45
<b>6. Шерзод Бахранов</b> ЎЗБЕКИСТОН ССРДА ПАХТАЧИЛИК ИЛМИЙ – ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН.....	52
<b>7. Abduvali Berdiyev</b> SHARQIY TURKISTON BILAN SAVDO ALOQALARINING RIVOJLANISHIDA QO‘QON KARVON YO‘LLARINING O‘RNI VA ULARNING MINTAQAVIY IQTISODIYOTGA TA‘SIRI (18–19-ASRLAR).....	58
<b>8. Икрамжон Исмаилов</b> ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ВИЛОЯТЛАРИДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ СОҲАСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШДАГИ МУАММО ҲАМДА ЎЗГАРИШЛАР (1991-2020 йй).....	69
<b>9. Земфира Курбанова</b> ЦИКЛЫ ПОМИНОВЕНИЯ В СЕМЕЙНЫХ ОБРЯДАХ КАРАКАЛПАКОВ И ИХ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИЕ ПАРАЛЛЕЛИ.....	80
<b>10. Tamara Ro‘ziyeva</b> MIRZO SIROJIDDIN HAKIMNING “TUHAFI AHLI BUXORO” ASARIDA TURKISTON JAMIYATI HAQIDA.....	87
<b>11. Sarvinoz Toshmurodova</b> MILLIY SPORT TIZIMI VA OLIMPIYA HARAKATI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI.....	92
<b>12. Elyor Hojamberdiyev</b> TURON ARXELOGIYASINI O‘RGANISHDA YONDASHUV VA TADQIQOT USULLARI (ERON OLIMLARI MISOLIDA).....	99



**Sarvinoz Quvondiq qizi Toshmurodova,**  
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi  
sarvinoztoshmurodova0@gmail.com

## MILLIY SPORT TIZIMI VA OLIMPIYA HARAKATI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

**For citation:** Sarvinoz K.Toshmurodova. THE NATIONAL SPORTS SYSTEM AND THE OLYMPIC MOVEMENT: THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 7, pp.92-98

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.16755297>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonda dastlabki Olimpiya harakatlarining rivojlanishi hamda O‘zbekiston Milliy Olimpiya Qo‘mitasining tashkil etilishi tahlil qilinadi. O‘zbekistonda Olimpiya harakatining taraqqiyoti ikki bosqichda kechgan bo‘lib, har bir davr o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchi davr (1952–1992) yillarda O‘zbekiston hududida Olimpiya sporti sobiq Sovet Ittifoqi tizimi doirasida rivojlangan. Bu davrda mamlakat xalqaro sport maydoniga mustaqil ravishda chiqish, o‘z sportchilari nomidan qatnashish imkoniyatiga ega bo‘lmagan. O‘zbekiston jahon sport hamjamiyatlariga a‘zo emas edi. Sharq va G‘arb mamlakatlari bilan sport aloqalari faqat SSSR hukumati ruxsati va nazorati asosida amalga oshirilgan. Ikkinchi davr (1992 yildan hozirgi kungacha) mustaqil O‘zbekiston Respublikasida Olimpiya harakatining mustaqil tashkiliy asoslarda shakllanishi va rivojlanish davridir. Aynan shu bosqichda O‘zbekiston Milliy Olimpiya Qo‘mitasi tashkil etilib, xalqaro maydonda mustaqil ishtirok boshlangani ta’kidlanadi.

Maqolada, shuningdek, jismoniy tarbiyaga bo‘lgan davlat siyosati doirasidagi e‘tibor, O‘zbekiston sportchilarining xalqaro Olimpiya o‘yinlaridagi ilk qatnashuvi, MOQning vazifalari va xalqaro sport tashkilotlari bilan hamkorligi, sport sohasidagi islohotlar, sportchilarimizning jahon arenalaridagi yutuqlari hamda xalqaro sport maydonidagi O‘zbekistonning o‘rni haqida qisqacha bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Pyer de Kuberten, O‘zMOQ, XOQ, Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlari, jismoniy tarbiya va sport, Vel Barker Kubogi.

---

**Сарвиноз Тошмуродова,**  
Независимый исследователь  
Института предпринимательства и педагогики им. Денова  
sarvinoztoshmurodova0@gmail.com

## НАЦИОНАЛЬНАЯ СПОРТИВНАЯ СИСТЕМА И ОЛИМПЕЙСКОЕ ДВИЖЕНИЕ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА

### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется развитие олимпийского движения в Узбекистане и процесс формирования Национального олимпийского комитета Узбекистана. Развитие

олимпийского движения в стране условно делится на два этапа, каждый из которых имеет свои особенности. Первый период (1952–1992 годы) охватывает время, когда Узбекистан входил в состав бывшего Советского Союза. В этот период олимпийский спорт в республике развивался в рамках централизованной советской спортивной системы. Узбекистан не имел права самостоятельно участвовать в международных соревнованиях и не был членом международных спортивных организаций. Спортивные связи с Востоком и Западом осуществлялись исключительно с разрешения и под контролем советских властей. Второй период (с 1992 года по настоящее время) охватывает этап становления и развития независимой олимпийской структуры в Республике Узбекистан. Именно в этот период был создан Национальный олимпийский комитет Узбекистана, что позволило стране выступать на Олимпийских играх под своим национальным флагом.

В статье также рассматриваются вопросы, связанные с государственной политикой в области физического воспитания, первым участием Узбекистана в Олимпийских играх, задачами и функциями НОК, сотрудничеством с международными организациями, реформами в спортивной сфере, успехами узбекских спортсменов на мировой арене и местом Узбекистана в международном спорте.

**Ключевые слова:** Пьер де Кубертен, УзНОК, МОК, Олимпийские и Паралимпийские игры, физическое воспитание и спорт, Кубок Вела Баркера.

---

**Sarvinoz K. Toshmurodova,**

Independent researcher at the Denov Institute of  
Entrepreneurship and Pedagogy  
sarvinoztoshmurodova0@gmail.com

## THE NATIONAL SPORTS SYSTEM AND THE OLYMPIC MOVEMENT: THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN

### ABSTRACT

This article analyzes the development of the Olympic movement in Uzbekistan and the establishment of the National Olympic Committee of Uzbekistan. The evolution of the Olympic movement in Uzbekistan can be divided into two distinct stages, each characterized by its unique features. The first period (1952–1992) corresponds to the era when Uzbekistan was part of the former Soviet Union. During this time, Olympic sports in Uzbekistan functioned as part of the centralized Soviet sports system. The country did not have the right to participate independently in international sports events, nor was it a member of international sports organizations. Sports relations with Eastern and Western countries were conducted strictly under the supervision and authorization of the Soviet government. The second period (from 1992 to the present) marks the emergence and development of an independent Olympic structure within the Republic of Uzbekistan. It was during this phase that the National Olympic Committee of Uzbekistan was established, enabling the country to participate in the Olympic Games under its own flag.

The article also highlights government attention to physical education, Uzbekistan's initial participation in the Olympic Games, the main objectives and functions of the National Olympic Committee, the country's relations with international organizations, reforms implemented to develop sports, the achievements of Uzbek athletes on the global stage, and the role of Uzbekistan in international sports.

**Index Terms:** Pierre de Coubertin, National Olympic Committee of Uzbekistan, IOC, Olympic and Paralympic Games, physical education and sports, Vel Barker Cup.

---

**Kirish:** O'zbekistonda mustaqillik davrida jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning samarali natijasidir. Mamlakatimiz qudratini belgilaydigan eng asosiy omillardan biri bu shu yurtda yuksak ma'naviyatli, jismonan va ruhan sog'lom, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash masalasidir. Ma'naviy barkamol va jismoniy sog'lom insonni tarbiyalashning muhim vositasiga aylangan sport

olimpiya go‘yalari va olimpiya qadriyatlarini keng targ‘ib etishga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonda olimpiya harakatining rivojlanishi Zamonaviy Olimpiya o‘yinlarining asoschisi Pyer de Kuberten tomonidan ishlab chiqilgan olimpiya g‘oyalari, olimpiya ruhi va qadriyatlarining barhayotligi isbotlandi, sportning bugungi kunda insoniyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati katta ekanligi tasdiqlandi. Bugungi kunda ma‘naviy barkamol va jismoniy sog‘lom insonni tarbiyaiashning muhim vositasiga aylangan sport olimpiya go‘yalari va olimpiya qadriyatlarini keng targ‘ib etishga xizmat qilmoqda. Mustaqil O‘zbekistonda olimpiya harakatining tashkiliy tuzilmalari shakllandi. O‘zbekiston Respublikasi sportchilari Olimpiya o‘yinlari va xalqaro sport musobaqalarida mustaqil jamoa sifatida qatnashish huquqiga ega bo‘ldi.[1]

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:** O‘zbekistonda Olimpiya harakatining shakllanishi va milliy sport tizimining rivojlanishi mustaqillik yillarida jadal sur‘atda kechmoqda. Bu jarayonni tahlil qilish nafaqat sport sohasidagi taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlarini anglash, balki mamlakatda sog‘lom turmush tarzining shakllanishi, yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish va xalqaro maydonda milliy sport siyosatining tutgan o‘rnini ochib berish nuqtai nazaridan ham muhim hisoblanadi. Mazkur mavzuning ilmiy asoslanganligi bir qator muhim manbalar orqali tasdiqlanadi. Jumladan, A.K.Akramovning “O‘zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi” nomli asarida O‘zbekistonda sport harakatining tarixiy ildizlari, sovet davridagi sport tizimi va mustaqillikdan keyingi islohotlar chuqur tahlil qilinadi. Muallif sportni davlat siyosatining tarkibiy qismi sifatida o‘rganib, uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotdagi rolini yoritadi.

L.A.Djalilova o‘zining “Olimpizm madaniyatini shakllantirish vositalari” nomli tadqiqotida Olimpiya harakati nafaqat sportiy-harakat, balki ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ko‘rib chiqadi. U sport orqali tinchlik, insonparvarlik, do‘stlik va bag‘rikenglik g‘oyalari singdirish vositasi sifatida olimpizm konsepsiyasini asoslaydi. Ushbu qarashlar mavzuning pedagogik va madaniy jihatdan dolzarbligini tasdiqlaydi.

I.Niyozovning “Olimpiya sport o‘yinlari” hamda “Olimpiya bilimlari asoslari” kabi o‘quv qo‘llanmalarida esa Olimpiya harakatining nazariy asoslari, xalqaro olimpiya tizimi va uning tarkibiy tuzilmalari, shuningdek, O‘zbekistonning bu tizimdagi o‘rni keng yoritiladi. Bu manbalar mavzuning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. J.Eshnazarovning “Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish” nomli asarida sport boshqaruvining tarixiy va hozirgi shakllari, sport tizimida ijtimoiy institutlarning roli, jumladan, Milliy Olimpiya Qo‘mitasining vazifalari va faoliyati tahlil qilinadi. Bu esa mavzuning amaliy muammolar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shuningdek, E.Ernazarov tomonidan yozilgan “Olimpiada — jahon sporti bayrami” asarida Olimpiya o‘yinlarining tarixiy ildizlari, ularning xalqaro maydondagi ijtimoiy-siyosiy ahamiyati, sportchilar hayotidagi o‘rni, sport orqali milliy g‘urur va birdamlikning shakllanishi haqida qimmatli fikrlar bildirilgan. Muallif sportni millatlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlovchi vosita sifatida ko‘rsatadi.

Mazkur ilmiy manbalar orqali shuni xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonda Olimpiya harakati va milliy sport tizimining rivojlanishini chuqur o‘rganish zamonaviy sport menejmenti, xalqaro aloqalar, jismoniy tarbiya pedagogikasi va madaniy antropologiya kabi sohalar uchun dolzarb va ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalardan biridir.

**Tadqiqot metodologiyasi:** O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida xalqaro sport harakatida munosib o‘rin egallashga bor imkoniyatlarini namoyon etmoqda. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston sportchilari ko‘pgina nufuzli xalqaro sport musobaqalarida faol ishtirok etib kelmoqdalar. O‘zbekiston sportchilarining Olimpiya, Osiyo, Paralimpiya o‘yinlaridagi g‘alabasi sharafiga O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangraydi va Davlat bayrog‘i ko‘tariladi. O‘zbekistonda olimpiya harakatining rivojlanishi ikki bosqichdan iborat va o‘ziga xos xususiyatlarga ega I. 1952-1992-yillarni o‘z ichiga olgan birinchi davrda mamlakatimiz olimpiya sporti 1991-yilgacha sobiq Ittifoq bo‘yicha amal qilgan hukmron tizimning bir qismi bo‘lib, yurtimiz bu masalada xalqaro maydonga mustaqil chiqish va o‘z imkoniyatlarini namoyon etish huquqiga ega bo‘lmagan. O‘zbekiston sobiq Ittifoq davrida jahon sport hamjamiyatlariga a‘zo bo‘lmagan. Sharq va G‘arb mamlakatlari bilan sport aloqalar faqat sovet hukumati ruxsati va nazorati ostida o‘tkazilgan. II. 1992-yildan - hozirgi kungacha davom etib kelayotgan ikkinchi

davrda mustaqil O‘zbekiston Respublikasida olimpiya harakatining tashkiliy tuzilmasi tarkib topdi, O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi tashkil qilindi va xalqaro olimpiya harakatiga a‘zo bo‘ldi. O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida xalqaro sport harakatida munosib o‘rin egallashga imkoniyatlar yaratildi.[2]

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi ( O‘zMOQ) 1992-yil 21-yanvarda tashkil etildi. Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi (XOQ)ning 1993-yil sentabrda Monakoda bo‘lib o‘tgan 101-sessiyasida O‘zbekiston Milliy Olimpiya Qo‘mitasi XOQ tomonidan tan olindi. XOQ xartiyasi asosida va jahon sport harakatining ilg‘or tajribalariga tayangan holda MOQ Nizomi ishlab chiqildi va qabul qilindi. O‘zbekiston Milliy Olimpiya Qo‘mitasi - nodavlat notijorat tashkilot bo‘lib, uning asosiy vazifasi O‘zbekistonda olimpiya harakatini boshqarish va rivojlantirishdan iborat. O‘z MOQning asosiy ichki va tashqi vazifalarga ajratish mumkin, ular quyidagilardan iborat. O‘z MOQ faoliyatining asosiy maqsadi: olimpiya harakati va havaskorlar sportini rivojlantirish, Olimpiya xartiyasi asosida mamlakatda olimpizm tamoyillarini himoya qilishga yordam berish, Olimpiya o‘yinlarida Respublika sportchilarining ishtirok etishini ta‘minlashdan iborat.[3] O‘z MOQning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- O‘zbekistonda olimpiya harakatini rivojlantirish, olimpizm g‘oyalarini keng targ‘ib etish;
- XOQ, Osiyo Olimpiya Kengashi, boshqa mamlakatlar milliy olimpiya qo‘mitalari, Xalqaro sport federatsiyalari va uyushmalari bilan hamkorlik qilish, XOQning “Olimpiya birdamligi” dasturida ishtirok etish; .
- Mamlakat terma jamoalari va sport zaxiralarini tayyorlashda davlat, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlariga ko‘maklashish;
- Respublika aholisini jismoniy va ma‘naviy tarbiyalashga, jismoniy tarbiya va sport, milliy sport turlarini, nogironlar o‘rtasida sportni rivojlantirishni ta‘minlash;
- Yoshlarni boshqa mamlakatlar sportchilari bilan do‘stlik va birodarlikni mustahkamlash, musobaqalarda halol kurashish, raqibiga olijanoblik bilan munosabatda bo‘lish tamoyillari asosida tarbiyalash;
- O‘zbekiston sportchilari yutuqlarini keng targ‘ib qilish;
- Sport kadrlari o‘rtasida tajriba almashish, ular malakalarini oshirish uchun anjumanlar tashkil etish[4]

**Tahlil va natijalar:** O‘z MOQ o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, XOQning Olimpiya xartiyasiga, O‘zMOQ Nizomiga muvofiq amaiga oshiradi. Nizomga ko‘ra O‘zMOQ faoliyatini yurituvchi ijroqo‘m a‘zolari, Olimpiya akademiyasi va boshqa tuzilmalar tashkil etilgan edi. O‘zMOQ tarkibi: O‘zMOQ prezidenti, bosh kotibi, vitse-prezidentlari va a‘zolari; Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan milliy sport federatsiyalari vakillari; noolimpiya sport turlari va milliy sport federatsiyalari vakillari; Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sport tashkilotlari vakillari; Olimpiya o‘yinlari ishtirokchilari bo‘lgan sportchilar vakillaridan va boshqa alohida shaxslardan iboratdir. O‘zMOQning rahbar organlari: Bosh assambleya, Ijroiya qo‘- mita, hisoblanadi. Bosh assambleyalar oralig‘ida O‘zMOQ faoliyatiga Ijroiya qo‘mita rahbarlik qiladi. O‘zMOQning doimiy komissiyalari mavjud:

- Atletlar komissiyasi;
- Ayollar va sport komissiyasi;
- Sport va atrof-muhit komissiyasi.

O‘zbekiston MOQ huzurida Olimpiya akademiyasi tashkil etilgan. O‘zMOQ Nizomiga ko‘ra uning ramzlari kiritilgan. O‘zbekiston MOQning birinchi prezidenti etib Obid Nazirov saylangan. MOQ vitse-prezidenti bo‘lgan Sobir Ro‘ziyev 1994-yilda O‘zMOQning ikkinchi prezidenti etib saylangan. O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunining (2015) 17-moddasi “O‘zbekiston olimpiya harakati. O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi”ga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunning 17-moddasi “O‘zbekiston olimpiya harakati. O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi”, deb nomlanadi. Unda O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasining aniq vazifalari belgilangan, ya‘ni: olimpiya harakati tamoyillarini ommalashtiradi, yuksak yutuqlarga erishiladigan sportni va ommaviy sportni rivojlantirishga ko‘maklashadi; “XOQ Olimpiya xartiyasiga muvofiq Olimpiya

o'yinlarida va XOQ boshchiligida o'tkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida O'zbekiston Respublikasi nomidan ish yuritadi" sportchilarni Olimpiya o'yinlarida va XOQ boshchiligida o'tkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida ishtirok etishga tayyorlashning zarur darajasini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi; sportda dopingning oldini olish hamda unga qarshi kurashishga, shuningdek jismoniy tarbiya va sport sohasida kamsitish va zo'ravonlikning har qanday shakllari yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashadi; XOQ va O'zMOQ olimpiya ramzlari, shiori, bayrog'i, madhiyasidan, "olimpiya", "olimpiada" nomlaridan foydalanishga bo'lgan haquqlarini O'zbekiston Respublikasi hududida himoya qilish choralarini ta'minlaydi.[5]

O'zbekiston olimpiya harakati Xalqaro olimpiya harakatining tarkibiy qismi bo'lib, uning maqsadi olimpiya harakati tamoyillarini ommalashtirish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ko'maklashish, sport sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, Olimpiya o'yinlarida va XOQ boshchiligida o'tkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida ishtirok etishdan iboratdir.[6] O'zMOQ o'zining rasmiy anjumanlarida eng muhim masalalarni muhokama qilmoqda. Bunda rejalarini tasdiqlash, xalqaro olimpiya harakatida ishtirok etish, olimpiya g'oyalarini keng yoyish, sportchilarni Osiyo, jahon chempionatlari, xalqaro turnirlar va Olimpiya o'yinlariga tayyorlash bilan bog'liq masalalarni doimiy ravishda muhokama qilib bormoqda. Davlat O'zMOQ nizomida belgilangan maqsadlarini amalga oshirishiga har tomonlama ko'maklashgan holda O'zbekiston olimpiya harakatini tan oladi va qo'llab-quvvatlaydi. O'zMOQ o'z vakolatlarini maxsus vakolatli davlat organi, sport federatsiyalari va boshqa tashkilotlar bilan vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin. O'zMOQ Milliy olimpiya qo'mitalari assotsiatsiyasi - ANOKning teng huquqli a'zosi. O'zbekiston MOQ xodimlari, sport federatsiyalarning rahbarlari, mutaxassis olimlar va boshqa rasmiy kishilar XOQ joylashgan Lozanna va juda ko'p mamlakatlarning MOQ huzurida bo'lib, Kongresslar, sessiyalar va ilmiy anjumanlarda ishtirok etmoqda [7].

1996-yil sentabrda Toshkentda Olimpiya shon-shuhrati muzeyi ochildi. O'zbekiston Olimpiya shon-shuhrati muzeyida mamlakatimiz sport tarixi, olimpiya harakati, sportchilarning erishgan yutuqlari o'z ifodasini topdi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratildi, sportchilarimizning Olimpiya, Osiyo o'yinlari, qit'a va jahon chempionatlarida, xalqaro turnirlarda ishtirok etishi ta'minlandi. "Hech bir narsa mamlakatni sport kabi tezda dunyoga mashhur qila olmaydi," degan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov. Sportchilarimizning mustaqillik yillarida xalqaro maydonlarda erishgan g'alabalarini yurtboshimiz so'zlariga tasdiq sifatida misol qilish mumkin. O'zbekiston sportchilari yozgi Olimpiya o'yinlarida. O'zbekiston terma jamoasining yozgi Olimpiya o'yinlarida mustaqil ishtiroki 1996-yilda boshlangan. XXVI yozgi Olimpiya o'yinlari 1996-yil 19-iyul 4-avgust sanalarida Atlanta shahrida (AQSH) bo'lib o'tgan. Bu o'yinlarda dunyoning 197 mamlakatidan 10320 sportchi 26 ta sport turi bo'yicha 271 ta medallar komplekti uchun kurash olib borgan. O'zbekiston sportchilari dzyu-do bo'yicha Armen Bagdasarov kumush, boks bo'yicha Karim To'laganov bronza medallarini qo'lga kiritganlar. XXVI yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi 197 mamlakat orasida 58-o'rinni egallagan [8].

XXVII yozgi Olimpiya o'yinlari 2000-yil 16-30-sentabrda Sidney shahrida (Avstraliya) bo'lib o'tgan. Mazkur Olimpiya o'yinlariga 199 davlatdan 10651 nafar sportchi qatnashib, ular 37 ta sport turi bo'yicha 300 ta medallar komplekti uchun bellashgan. Mamlakatimiz terma jamoasi tarkibidagi 77 nafar sportchi Olimpiya o'yinlari dasturining 13 sport turi bo'yicha musobaqalarda ishtirok etgan. Olimpiya o'yinlarida Muhammadqodir Abdullayev boks bo'yicha oltin, Artur Taymazov erkin kurash bo'yicha kumush, Rustam Saidov va Sergey Mixaylov boks bo'yicha bronza medallari sovrindori bo'lganlar. Olimpiya terma jamoamiz norasmiy umumjamoa hisobida 199 ta mamlakat orasida 41-o'rinni egallagan [9].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi sportchilarini Afina shahrida (Gretsiya) o'tkaziladigan XXVIII yozgi Olimpiya o'yinlarida (2004 y.) munosib ishtirok etishlarini ta'minlash to'g'risida" gi qarori 2004-yil 7-iyunda qabul qilingan. XXVIII yozgi Olimpiya o'yinlarida mamlakatimizdan 69 nafar sportchi o'yinlar dasturiga kiritilgan sportning 37 turidan 15 ta turi bo'yicha musobaqalarda qatnashgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustasi

Artur Taymazov erkin kurash bo'yicha Olimpiada chempioni bo'lgan. Olimpiya musobaqalarida yunon-rum kurashi bo'yicha 74 kg vaznli sportchilar orasida Aleksandr Doktorashvili oltin medalga sazovor bo'lgan. Erkin kurash bo'yicha 96 kg vaznli sportchilar o'rtasida Magamed Ibragimov kumush medal sovrindori bo'lgan. Boks bo'yicha O'tkir Haydarov 81 kg, Bahodir Sultonov 51 kg vaznli boks ustalari o'rtasida bronza medallariga sazovor bo'lgan.[10]

XXVIII yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston Respublikasi milliy olimpiya jamoasi 202 davlat o'rtasida 34-o'rinni egallagan. Mamlakatimiz vakillari norasmiy umumjamo'a hisobida Sidney Olimpiadasiga nisbatan yetti, 1996-yilgi Atlantadagi o'yinlarga nisbatan esa yigirma to'rt pog'ona yuqoriga ko'tarilgan edilar. Bu Olimpiya o'yinlari natijalari bo'yicha O'zbekiston sportchilari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari o'rtasida beshinchi, Markaziy Osiyoda esa birinchi o'rinni egallagan. XJOC yozgi Olimpiya o'yinlari 2012-yil 27-iyul 16-avgust kunlari London shahrida (Angliya) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlarida jahonning 205 davlatidan 10500 nafar sportchi 302 komplekt medallari uchun 26 sport turlari bo'yicha musobaqalarda ishtirok etishdi. Olimpiya o'yinlari davomida jami 44 ta jahon va 117 ta olimpiya rekordlari o'rnatildi. Olimpiya musobaqalarida O'zbekiston sportchilaridan 4 nafari sovrindor, 14 nafari kuchli sakkizlikka kirgan. Olimpiya o'yinlarida jahon chempioni Artur Taymazov uchinchi marta Olimpiada chempioni nomiga sazovor bo'lgan, bronza medallar bilan taqdirlangan Rishod Sobirov (dzyudo), Abbos Atoyev (boks) yuksak mahorat va matonat namunasini ko'rsatgan edilar.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 14-avgust kuni qabul qilingan "London shahrida bo'lib o'tgan XXX yozgi Olimpiada o'yinlarida yuksak natijalarga erishgan sportchilari mizdan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, Vatanimiz sharafini munosib himoya qilgan sportchilar taqdirlandi. Olimpiya o'yinlarida erishgan yutuqlari bilan Vatanimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tibori va nufuzini oshirishga qo'shgan katta hissasi uchun bronza medallari sohiblari bo'lgan Rishod Sobirov "O'zbekiston iftixori", Abbos Atoyev "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi" faxriy unvonlari bilan taqdirlandi. London Olimpiada chempioni Artur Taymazov yurtimizning sport sohasidagi shon-shuhratini yuksaltirish ishiga qo'shgan ulkan hissasi, Olimpiada o'yinlarida yuksak natijalarga erishgani uchun "El yurt hurmati" ordeni bilan mukofotlandi. Davlatimiz birinchi rahbari I.A.Karimov tomonidan Artur Taymazovga mashhur sportchimizning O'zbekiston bayrog'ini baland tutib turgan oltin suvi yuritilgan haykalchasi taqdim etilgan edi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2013-yil 25-fevraldagi "O'zbekiston sportchilarini 2016-yilda Rio-de-Janeyro shahrida (Braziliya) bo'lib o'tadigan XXXI yozgi Olimpiyada va XV Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarligi to'g'risida"gi qarori muhim dasturilamal bo'lib xizmat qildi.[11]

XXXI yozgi Olimpiya o'yinlari 2016-yil 5-21-avgust kunlari Rio-de-Janeyro shahrida (Braziliya) bo'lib o'tdi. Rio-2016 Olimpiadasida O'zbekiston boks terma jamoasi 3 ta oltin, 2 ta kumush va 2 ta bronza medallar bilan umumjamo'a hisobida 1-o'rinni egalladi. O'zbekistonlik bokschi Hasanboy Do'smatov esa texnikasi eng yuqori bo'lgan bokschi beriladigan "Vel Barker Kubogi" taqdim etildi va mazkur sovrinni qo'lga kiritgan birinchi o'zbekistonlik bokschi bo'ldi. "Vel Barker Kubogi" 1920-yilda Xalqaro yarimprofessional boks assotsiatsiyasi tomonidan ta'sis etilgan bo'lib, 1936-yildan buyon Olimpiada o'yinlarida texnikasi eng yuqori bo'lgan bokschi beriladigan mukofotdir. O'zbekiston sportchisi Ruslan Nurudinov og'ir atletikaning, 105 kg vazni bo'yicha jami 431 kg og'irlikni yengib, Olimpiada chempioni bo'ldi va yangi olimpiya rekordini o'rnatdi. XXXI yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi 4 ta oltin, 2 ta kumush va 7 ta bronza medallari bilan umumjamo'a hisobida 207 davlat orasida 21-o'rinni egalladi. Ushbu natijalar bo'yicha O'zbekiston Osiyo mamlakatlari orasida 4-o'rinni, MDH davlatlari orasida 2-o'rinni, Markaziy Osiyo davlatlari orasida 1-o'rinni egalladi.[12]

**Xulosa va takliflar:** Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi bilan mamlakatda sport va, xususan, Olimpiya harakati rivojiga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Bu e'tibor nafaqat xalqaro sport maydonidagi qatnashuv bilan chegaralanib qolmay, balki sport tizimining ichki tuzilmasini isloh qilish, jismoniy tarbiya va sport sohasida zamonaviy mutaxassislar tayyorlash masalasini ham o'z ichiga oldi. Jismoniy tarbiya sohasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Sport-ta'lim muassasalari faoliyati kengaytirildi, sport

federatsiyalari va uyushmalari faoliyati takomillashtirildi. Ayniqsa, yosh avlodni sportga jalb etish, ularning salomatligi va jismoniy rivojini ta'minlash borasida qator dasturlar ishlab chiqildi.

Shuningdek, 1996-yil sentabr oyida Toshkent shahrida O'zbekiston Olimpiya shon-shuhrati muzeyining ochilishi ushbu harakatning ramziy va ma'naviy ifodasiga aylandi. Muzeyda mamlakatimiz sport tarixiga oid eksponatlar, taniqli sportchilarning yutuqlari, Olimpiya harakati rivojini aks ettiruvchi hujjatlar va fotoalbomlar jamlangan. Bu maskan nafaqat sport merosini targ'ib qiluvchi muhim ilmiy-madaniy markaz, balki yosh avlodni sport tarixiga qiziqtiruvchi, vatanparvarlik ruhida tarbiyalovchi omil sifatida xizmat qilmoqda.

O'zbekistonlik sportchilarning mustaqillikdan so'ng Olimpiya o'yinlari, Osiyo o'yinlari, qit'a va jahon chempionatlari hamda boshqa xalqaro sport musobaqalarida faol va muvaffaqiyatli ishtirok etishlari — olib borilgan izchil sport siyosatining samarasi bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda yoshlar orasida sportga bo'lgan qiziqishning ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bu esa mamlakatda sog'lom turmush tarzining shakllanishi, jismoniy tarbiya va sportning hayotiy zaruratga aylanib borayotganidan dalolat beradi. Umuman olganda, mustaqillik yillarida O'zbekistonda sport sohasi va Olimpiya harakatining rivoji nafaqat jismoniy sog'lomlikni, balki milliy g'urur, Vatanga sadoqat, xalqaro maydondagi obro'-e'tibor va madaniy aloqalarni mustahkamlovchi kuchli ijtimoiy omilga aylandi.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Akramov A.K., O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi. O'quv qo'llanma. -T.: O'zDJTI nashr, 1997.
2. Djalilova L.A. Olimpizm madaniyatini shakllantirish vositalari. -T.: «Fan-sportga» Respublika ilmiy-nazariy jurnal. №3-2014.
3. Djalilova L.A. Olimpiya bilim asoslari faniga kirish. Qadimgi Olimpiya o'yinlari. O'quv-uslubiy tavsiyalar. ~T.: "ITA-PRESS", 2015.
4. Djalilova L.A. O'zbekistonda 1917-1991-yillarda jismoniy tarbiya va sport. O'quv-uslubiy tavsiyalar. -T.: "ITA-PRESS", 2015.
5. Djalilova L.A. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport (1991-hozirgi davrgacha). O'quv-uslubiy tavsiyalar. -T.: "ITA-PRESS", 2015.
6. Djalilova L.A. Zamonaviy Olimpiya o'yinlarining qayta tiklanishi. O'quv-uslubiy tavsiyalar. -T.: "ITA-PRESS", 2015.
7. Djalilova L.A. Xalqaro sport va olimpiya harakati. O'quv-uslubiy tavsiyalar. -T.: "ITA-PRESS", 2015.
8. Shakirjanova K.T. Jismoniy tarbiya va sportdagi uzluksiz ta'limni tashkil qilish. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: O'zDJTI, 2012.
9. Ernazarov E. Olimpiada – jahon sporti bayrami. Ilmiy-ommabop risola. – T.: Sharq, 2008.
10. Olimpiya bilimlari asoslari. O'quv qo'llanma. T.: Sharq, 2002.
11. Yarashev K.D. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. T.: "Ibn Sino", 2000
12. Платонов В.Н., Гуськов С.И. Олимпийский спорт. Учебник. Киев:
13. «Олимпийская литература», 1994.

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 7 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 7

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 7

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000